

“Men uchun Vatan nima?” mavzusida esse yozish

Texnologik xarita

Ko'rsatkich	Mazmuni
Davomiyligi	45 daqiqa
Mashg'ulot turi	Refleksiv-yakunlovchi mashg'ulot
Metodlar	Esse “Besh barmoq” refleksiyasi, ovoz chiqarib o'qish (ixtiyoriy)
Jihozlar	Daftar/varaq, oy davomidagi plakatlar (“Yutuqlar devori”), “Besh barmoq” namunasi

II. Maqsad va kutilayotgan natijalar

Ta'limiy: oy davomida o'rganilgan bilimlarni yakunlash va umumlashtirish;

Tarbiyaviy: Vatanga bo'lgan shaxsiy his-tuyg'ularni ongli ravishda ifodalash;

Rivojlantiruvchi: fikrni yozma ravishda izchil va ta'sirli bayon etish ko'nikmasini shakllantirish.

III. Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism va oy yakunini eslash - 5 daqiqa

O'qituvchi: *Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar! Bir oy davomida biz mustaqillik tarixi, davlat ramzlari, oilaviy suhbatlar va “Yangi O'zbekiston” loyihasi ustida ishladik. Bugun esa shu barcha bilim va tuyg'ularimizni jamlab, yakuniy ishimizni bajaramiz.*

O'qituvchi “Yutuqlar devori”dagi plakatlarga qisqacha nazar tashlab, oy davomidagi asosiy voqealarni eslatib o'tadi.

2. Yozma ish uchun tayyorgarlik - 8 daqiqa

O'qituvchi: *Yozma ishni boshlashdan oldin, keling, birga miyaga kelgan fikrlarni ovoz chiqarib aytamiz. Vatan sizga nimani eslatadi? Bitta so'z bilan aytadigan bo'lsangiz, u qanday so'z bo'lardi?*

O'quvchilar: *(navbat bilan bittadan so'z aytadilar: oila, uy, bayroq, til, tuproq va h.k. — o'qituvchi bu so'zlarni doskaga yozib, kichik “so'zlar bulutini” hosil qiladi)*

3. Yozma ish — 20 daqiqa

O'qituvchi: *Endi ushbu so'zlar va bir oylik tajribangizga tayanib, “Men uchun Vatan nima?” mavzusida esse yozasiz. Shoshilmang, chin yurakdan yozing — bu ishda “to'g'ri” yoki “noto'g'ri” javob yo'q, faqat sizning samimiy fikringiz bor.*

O'quvchilar mustaqil ravishda yozma ish bajaradilar. O'qituvchi sinf bo'ylab yurib, kerak bo'lganda individual yordam ko'rsatadi, lekin fikrga aralashmaydi.

Namuna. Men uchun Vatan nima?

Men uchun Vatan — bu men tug'ilib o'sgan, bolaligim o'tgan, qalbinga eng yaqin bo'lgan muqaddas maskandir. Vatan deganda ko'z oldimga avvalo oilam, ota-onam, tug'ilib o'sgan mahallam va ona yurtimning go'zal tabiati keladi. Men uchun Vatan shunchaki xaritada belgilangan hudud emas, balki mening tarixim, tilim, madaniyatim va kelajagimdir.

O'zbekiston — mening faxrim va g'ururim. Yurtimizning qadimiy shaharlari, buyuk allomalari, betakror tabiati va mehmondo'st xalqi meni doimo hayratga soladi. Ajdodlarimiz ilm-fan, adabiyot va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shganlar. Ularning boy merosini o'rganish va asrab-avaylash har bir yoshning burchidir.

Men Vatanimning tinchligi va obodligini juda qadrlayman. Tinch yurtida inson bimalol ta'lim olishi, kasb egallashi va o'z orzulari sari intilishi mumkin. Shuning uchun men yaxshi o'qib, bilim va ko'nikmalarimni rivojlantirishga harakat qilaman. Chunki kelajakda Vatanimga foydali inson bo'lishni istayman.

Menimcha, Vatanga muhabbat faqat chiroyli so'zlar bilan emas, balki yaxshi amallar bilan namoyon bo'ladi. O'z vazifasini halol bajarish, tabiatni asrash, kattalarni hurmat qilish va kichiklarga g'amxo'rlik qilish ham Vatanga xizmat qilishdir.

Men Vatanimni sevaman va uning kelajagi yanada porloq bo'lishiga ishonaman. Men uchun Vatan — mening uyim, g'ururim, umidim va kelajagimdir.

4. Ixtiyoriy taqdimot - 7 daqiqa

O'qituvchi: *Kim o'z essisini ovoz chiqarib o'qib bermoqchi? Majburiy emas, faqat xohlovchilar.* O'quvchilar ixtiyoriy ravishda ishini o'qib beradi, sinf hurmat bilan tinglaydi.

IV. BIZ UCHUN MUHIM: “Shaxsiy ma'lumotlarimni asrayman” 2 daqiqa

O'qituvchi: o'quvchilar, bugun “Biz uchun muhim” bo'lgan narsalardan biri haqida gaplashamiz. Bilamiz, har bir insonning o'ziga tegishli shaxsiy ma'lumotlari bo'ladi. Ism-familiyamiz, telefon raqamimiz, uy manzilimiz, maktabimiz, tug'ilgan sanamiz, parolimiz va shaxsiy suratlarimiz shular jumlasidandir. Shaxsiy ma'lumotlarimizni har kimga aytish yoki internetda ochiq joylashtirish to'g'ri emas. Ayniqsa, parol, SMS orqali kelgan tasdiqlash kodi, bank kartasi ma'lumotlari va uy manzilini begona odamlarga yubormaslik kerak. Internetda kimdir bizdan shaxsiy ma'lumotlarimizni so'rasa, darhol javob berish shart emas. Avval ota-onamiz,

o'qituvchimiz yoki boshqa ishonchli kattalardan maslahat so'rashimiz kerak bo'ladi. Yana bir muhim qoida: boshqa odamlarning ham shaxsiy ma'lumotlarini ruxsatsiz tarqatmaslik kerak. Masalan, do'stimizning suratini yoki telefon raqamini undan so'ramasdan internetga joylashtirish yaxshi ish emas. Shuni yodda tuting: internetga joylangan ma'lumotni keyinchalik butunlay o'chirib tashlash har doim ham oson emas. Shuning uchun biror ma'lumotni ulashishdan oldin: "Buni boshqalar ko'rsa, menga zarar qilmaydimi?" — deb o'ylab ko'ring.

Esda tuting: shaxsiy ma'lumot — shaxsiy boylik. Uni asrash o'zingizni asrash demakdir!

V. "Besh barmoq" refleksiyasi va yakunlash - 3 daqiqa

- Bosh barmoq - Bu oy davomida eng yodda qolgan voqea?
- Ko'rsatkich barmoq - Nimani yangi bilib oldim?
- O'rta barmoq - Nima menga qiyin tuyildi?
- Nomsiz barmoq - Kayfiyatim qanday edi?
- Jimjiloq - Vatan haqida yana nimani bilishni xohlayman?

O'qituvchi: Ushbu oy davomida biz mustaqillik va Vatanimiz haqida ko'p narsa o'rgandik, his qildik va bir-birimiz bilan bo'lishdik. Yozgan inshoingizni ehtiyotlab saqlang — bu sizning bugungi tuyg'ularingizning yozma xotirasi bo'lib qoladi.

